

INTERFAOL METODLARDAN MUSIQA MADANIYATI  
DARSLARIDA FOYDALANISH

*Nomozova Gulbaxor Nodirovna*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*Musiqa ta'limi fakulteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodlari, musiqa ta'limida dars samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari, interfaol metodlar turlari va maktab o'quvchilarini ham ijroviy, ham ijodiy barkamollikka erishishlari uchun usul va texnologiyalar foydalanish yo'llari o'rin egallagan.

**Kalit so'zlar:** interfaol, texnologiya, klaster, metod, kuy, ohang.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon ulkan islohotlar va taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Ushbu taraqqiyot va bunyodkorlik yo'lida barkamol avlodning o'rni juda katta. Mamlakatimiz rivoji taraqqiyotining asosi ta'lim tizimining sifatli va mukammalligi bilan ham bog'liq. Shu bois, ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifatini ko'rsatib beruvchi ilg'or, har tomonlama ilmiy – metodik jihatdan asoslab berilgan uslublarning – innovatsion pedagogik texnologiyalarning maqsadi - Respublikamizning ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan yosh istiqbolli pedagog kadrlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgatish, pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarini o'quv tarbiya jarayonida qo'llay olishga o'rgatish, shuningdek, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berishdan iborat. O'quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ulardan unumli natija ola bilish pedagogdan katta salohiyat hamda mahorat talab etadi. Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion texnologiyalar faoliyatni maydonga olib chiqdi. «Innovatsion texnologiyalar» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G'arbiy Yevropa va AQShda paydo bo'lgan. Dastlab innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slatenin, A.I.SHerbakov ishlarida tadqiq etilgan.

Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «Hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan. Darhaqiqat, innovatsion texnologiyalar taraqqiy etgan mamlakat ta'lim sohasidagi siyosatlarining bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bu sohada «YUNESKO» ham jonbozlik korsatib

1971-yil Fransiyaning sobiq bosh vaziri Edgardo Foroga jahonda roʻy berayotgan oʻzgarishlar asosida taʼlimning maqsadini, rivojlantirish yoʻnalishlarini aniqlash vazifasini yuklaydi. Natijada, 1972-yilda «Mavjudlik uchun kurash», «Tarbiya dunyosi bugun va ertaga» mavzusidagi kitoblar dunyoga keladi. Bu asarlarda zamonaviy texnologik taʼlim tizimini va mazmunini yangilangan xarakterlanuvchi asosiy kuch ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, texnologiyalarni loyihalash tizimida har xil, turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, V.A.Monaxov, M.A.Choshamov, V.P.Bespalko, I.Ya.Lerner, M.Ochilov kabi taniqli olimlar oʻz hissalataʼlimni innovatsion texnologiyalar rivojlanishiga qoʻshganlar. Bunday masʼuliyatli muammoni hal etishda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Taʼlimni ilmiy-nazariy va amaliy tomondan asoslab, taʼlim jarayonini texnologiyalashtirish uchun yagona pedagogik jarakozlangan maqsadga oʻz kuch sarflab, oson erishishni muhim tamoyillari» ni koʻrsatgan edilar. Pedagogik texnologiya shunday bir narsaki, bevosita tarbiyalanuvchilar koʻrib, eshitib turgan narsalar orqali ularga oʻz qalbini, fikrlarini yetkazish imkoniyatini beradi. Taʼlimning asosiy vazifasi talabalarni ilmiy bilimlar, koʻnikma va malakalar tizimi sohasidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Taʼlim jarayonida oʻquvchilar bilimlar tizimini egallabgina qolmay, balki koʻnikma va malakalar hosil qilib boradilar. Bilim — oʻquvchilarni oʻqish jarayonida puxta oʻzlashtirgan oʻquv materiallari haqidagi maʼlumot. Koʻnikma — oʻquvchilarning olgan bilimiga asoslanib, belgilangan vazifalarni bajarishga doir harakatlar yigʻindisi. Malaka — ongli xatti-harakatlarning singib ketgan qismi. Malaka bir narsani koʻp marta takrorlash asosida hosil qilinadi. Yaʼni shu narsani alohida qayd etish lozimki, koʻnikma va malakaning umum hajmda farq qiluvchi tamonlari bor. Umumiy tomoni shundaki, qilingan barcha harakatlar amaliyotda qollaniladi farqi esa oʻquvchilar chaqqonlik, onglik, ziyraklik, vaziyatga kira olish kabi qobiliyatlar bilan bir-biridan farq qiladi. Talim jarayonida koʻnikma va malaka doimo hamkorlikda yursa-da, lekin bilim hamma vaqt yetakchi boʻladi. Chunki inson bilim asosida malum bir koʻnikma va malaka hosil qiladi. Umuman oʻquvchilar oʻquv jarayonida osondan murakkabga, quyidan yuqoriga, nomaʼlumdan maʼlumga qarab borishi bilan koʻnikma va malakalar odatiy tusga kiradi. Zamonamiz taqozosi musiqa darslarini yanada joʻshqin, qiziqarli, koʻtarinki ruhda oʻtishlari uchun yangi pedagogik texnologiyalarni qoʻllash yaxshi natija beradi. Bunday darslar oʻquvchi oʻquvchilarni bilim darajasini aniqlashga, baholash va ragʻbatlantirishga, jamoa bolib ishlashga va bir-birlarini fikrlarini hurmat bilan tinglashga keng imkoniyatlar beradi. oʻquvchilarni musiqiy did va musiqiy dunyoqarashini shakllanishiga asos soladi. Oʻqitish jarayoni oʻquvchi- oʻquvchilarga shaxs sifatida qaralishi turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qoʻllashda ularni mustaqil erkin fikrlashga, oʻz ustilarida ishlashga, izlanishga oʻrgatadi. Har bir masalaga ijodiy yondashish masʼuliyatini sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlarda

foydalanishga eng asosiysi, o`qishga, fanga, pedogogika va o`zi tanlagan kasbiga bo`lgan qiziqishini kuchaytiradi. Mashg`ulotlar davomida o`quvchilar mavzuni interaktiv metodlar (jamo bo`lib ishlash) orqali o`zlashtiradilar. Mavzu yuzasidan noananaviy darslar turiga: «Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujm», «Veer», «Blits o`yin», «Zig-zag», «Charxpalak» kabi texnologiyalar qo`llaniladi. Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik olimlardan biri E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo`lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan. Axborot - yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta`lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e`tibor yanada kuchaytirildi. O`zbekistonda ham so`nggi yillarda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo`lib ta`lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta`lim jarayonida o`z aksini topdi. O`qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta`lim mazmunida, o`qitish metodlarida, dars shakli, o`qitish turlari, o`qitish vositalarida ko`rishimiz mumkin

- Ta`lim mazmuniga innovatsiya an`anaviy, noan`anaviy va masofaviy o`qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi.

- O`qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi misolida ko`ramiz.

Aktiv metodni qo`llash o`quvchilarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod o`quvchilarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interaktiv metod esa birgalikda faol harakat qilishi (o`qituvchi bilan o`quvchilarni, o`quvchilar bilan o`quvchilar) tushuniladi. Dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandart hamda vertual dars shakllari misolida ko`rishimiz mumkin.

O`qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta`lim, evristik ta`lim, darajalangan ta`lim, integratsiyalangan ta`lim, interfaol ta`lim, informal ta`lim, rasmiy ta`lim, norasmiy ta`lim turlari bilan izohlanadi. O`qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izohlaymiz.

O`qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko`rishimiz mumkin.

**1. Aktiv metod.** Bu metod ni dars jarayonida faollashuviga, ma`lum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-muloxaza yuritishga undaydi.

**2. Passiv metod.** Bu metod dars jarayonida talabalarda o`rganilayotgan mavzu bo`yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo`lishiga olib keladi.

**3. Interaktiv metod.** Bu metodni maqsadi dars jarayonida o`qituvchi va talabalarni birgalikdagi faol xatti-harakatlariga asoslanadi.

Dars shaklidagi innovatsiyani quyidagi shaklda ko`rishimiz mumkin.

a) Standart dars – dars ichidagi struktura o`zgarmaydi.

b) Nostandart dars – dars ichidagi struktura o'zgaradi.

v) Vertual dars – yani masofadan o'qitish.

Pedagogik innovatsiyada "Yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Xususiy yangilik V.A.Slasteninining aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. V.I.Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi. R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi. Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iborat bo'lib, innovatsiya jarayonlari, ularning funktsiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy o'quv yurti o'quv o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi. Musiqa ta'limini takomillashtirishda ham pedagogik texnologiyalarning o'rnini beqiyos. Respublikamizda yangicha ta'lim tizimini bunyod etib, kelgusida bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan istiqbolli vazifalarni belgilab bergan. Shular sirasiga, zamonaviy ilm-fanning shu kunda erishilgan yutuqlari bilan birga hududimiz o'qituvchi va pedagoglarining kasbiy kompetentlik darajasidan kelib chiqib, jahondagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan unumli foydalangan holda, hududimizga mos bilim berish nazariya va usul yaratishni maqsad qilib qo'yilgan. Chunki xalqimizning kelajagi ko'p jihatdan o'qituvchiga uning salohiyatiga, kasbiy tayyorgarligiga, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish faoliyatiga bog'liq. Yosh avlodni bilimli, madaniyatli, m'anaviyatli, odobli, e'tiqodli, barkamol inson qilib voyaga yetkazish, o'qituvchi zimmasiga asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogika, psixologiya, ma'naviyat, milliy istiqloq g'oyasi, informatika, yangi pedagogik texnologiya, musiqa san'atiga oid fanlarni o'qitish imkoniyatlari yanada kengaytirilgan. Zamonaviy talab va metodlar asosida, umumfanlar bo'yicha dastur hamda o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratilgan. Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi, yosh avlodni sog'lom va barkamol inson bo'lib voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buni amalga oshirish uchun o'quv

mashg`ulotlari va dars jarayonini olib borish qobiliyatini o`qituvchilar o`zlarida paydo qilishlari uchun ta`lim nazariyasi bilan birga o`qitishning zamonaviy usullarini egallab, ularni pedagogik amaliyotda qo`llash ko`nikmasini hosil qilish zarur. O`qituvchi "Pedagogik texnologiya» jarayonining asl mohiyatiga har bir mashg`ulotning loyahasini tuza olishi va bu loyihadan pedagogik amaliyotda mohirona foydalana olishlari kerak. Shu bilan birga o`z ma`naviyati ustida tinmay ishlash ko`nikmasini hosil qilish kerak. Yevropa va Sharq kompozitorlarining mumtoz asarlari bilan tanishib, "Musika madaniyati" darslarini sifatli va salohiyatli olib borish uchun intilishi lozim. Musika madaniyati fani asosan, adabiyot tarix matematika pedagogika, psixologiya, estetika va san`atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U musika o`qitishning qonun-qoidalarini ta`riflab, kelajakda yosh avlodga ta`lim-tarbiya berishda qo`llanadigan zamonaviy texnologiyalar va metodlarni belgilab beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Avliyoqulov N. H. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. – T.: 2001.
2. Azizxo`jayeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. – T.:2006.
3. Ishmuhamedov R va boshqalar Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta`lim muassasalari tarbiyachi – o`qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) – T.: "Istedod", 2010.
4. G. Sharipova. Musika o`qitish metodikasi (ma`ruzalar matni). TDPU 2000y.